

SOTSILOGIK TADQIQOTLARDA HUJJATLARNI TAHLIL QILISH

Abdusamatova Odinaxon Abdusalom qizi

Farg'ona davlat universiteti Tarix fakulteti Sotsiologiya yo'nalishi 2-bosqich 21.119-guruhi talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada sotsiologiya fanida qo'llaniladigan hujjat atamasi va uning turlari haqida ma'lumot olishingiz mumkin. Qolaversa, hujjatlarni tahlil etish metodi guruhlari to'g'risidagi bilimlarga ega bo'lasiz. Mazkur metoddan foydalanish jarayonida nimalarga e'tibor qaratish lozimligi qayd etilgan. Zero, hujjat tadqiqotning muayyan bilimlari to'plamidir. Har qanday metodning o'ziga xos afzalliklari va kamchilik taraflari bo'lgani kabi hujjatlarni tahlil qilish metodining mana shu taraflari ham yoritilgan.

Kalit so'zlar: sotsiologik tadqiqot, hujjat, shaxsiy va shaxxsiz hujjatlar, rasmiy va norasmiy hujjatlar, hujjatlarni tahlil qilish metodi, an'anaviy va tarkibiy tahlil, yozma, fonetik va ikonografik hujjatlar.

KIRISH

Sotsiologik tadqiqotlar – faqat fan ichida yaratiladigan, tashkillashtiriladigan va amalga oshiriladigan sotsiologik nazariya orqali boshqariladigan sotsiologik mavzuga bag'ishlangan, boshqa turdosh bilimni emas, aynan sotsiologik bilimni rivojlantirish imkonini beradigan tadqiqotlardir.

Biz sotsiologik tadqiqot o'tkazayotganimizda, avvalo, uning strategik hujjatlarini – dasturini tayyorlashimiz muhim ahamiyatga ega. Chunki ushbu dasturda biz tadqiqotning maqsad va vazifalarini, obyekt va predmetlarini belgilaymiz, hatto bajarilish muddatidan tortib, qo'llanilishi kerak bo'lgan metodlarni ham kiritamiz. Ma'lumki, tadqiqot jarayonida qo'llaniladigan ko'plab metodlarni bilamiz. Shular qatorida hujjatlarni tahlil qilish metodi haqida fikr yuritsak. Umuman olganda, hujjat tushunchasi qanday ma'noni anglatadi?

Sotsiologik tadqiqotda hujjatlarning ahamiyati qanday?

Tadqiqot jarayonida hujjatlarni tahlil qilish metodi nima uchun kerak?

Biz bu metod orqali nimalarga erishishimiz mumkin..?

Keling, shu kabi savollarga javob beramiz.

1. Sotsiologik ma'lumotlarni yig'ish usullaridan biri – hujjatlarni o'rganish usulidir. Hujjat o'z sematik ma'nosiga ko'ra isbot etish mazmunini ifodalovchi so'zdir. Hujjat moddiy material manba hisoblanib, voqeа va faktlar xususidagi ma'lumotlarni o'zida ifodalaydi. Sotsiologiyada hujjat deganda tekstlardagi bosma va qo'lyozma shaklida yozilgan informatsiyalarni, magnit lentasiga foto va kinoplenkalarga yozilgan informatsiyalarni tushunamiz. Hujjat sifatida turli formulalar, chizmalar, grafiklar, ramziy belgilar ham bo'lishi mumkin. Hujjatlar bir necha asoslarga bo'linadi:

Informatsiyaning qo'lyozma, bosma, kino, foto, magnitafon lentalariga yozish shakllari qayd etiladi.

Shaxsiylashtirish darjasи bo'yicha hujjatlar shaxsiy va shaxssizga bo'linadi:

Shaxsiy hujjatlarga buxgalteriya hisobi kartalari(kutubxona varaqalari, anketalar, shakllar va boshqalar) shaxsga berilgan xususiyatlar, xatlar, kundaliklar, bayonotlar, esdaliklar kiradi.

Shaxssiz hujjatlar- statistik yoki voqeа arxivlari, matbuot ma'lumotlari, yig'ilishlar bayonnomalari va boshqalarni kiritishimiz ham mumkin.

Vaziyatga qarab manbani rasmiy va norasmiy hujjatlar deb e'tirof etamiz:

Rasmiy hujjatlar – hukumat materiallari, farmonlar , bayonotlar , rasmiy yig'ilishlarning stenogrammasi, davlat va idoraviy statistik ma'lumotlari arxivlar va turli muassasa va tashkilotlarning amaldagi hujjatlari, ishbilarmonlik yozishmalari, bayonnomalar, sud tizimi va prokurorlar, moliyaviy hisobotlar va boshqalar.

Ular davlat va jamoat tashkilotlarining yuridik va mansabdor shaxslari tomonidan tuziladi va tasdiqlanadi.

Norasmiy hujjatlar – ko'plab shaxsiy materiallar, shuningdek, shaxslar tomonidan tuzilgan shaxssiz hujjatlar , boshqa tadqiqotchilar tomonidan o'z kuzatuvlari asosida tuzilgan statistik hisobotlar.

Tuzilishiga ko'ra ichki va tashqi hujjatlar farqlanadi:

Ichki hujjat – muassasa yoki korxonani o'zida tuziladigan va shu korxonada ichida foydalaniladigan hujjatlardir.

Tashqi hujjat – korxonaga boshqa tashkilotlar va ayrim shaxslardan keladigan hujjatlardir. Bularga taklifnomा, ishonchnoma, yo'riqnomा, kafolat xati, tavsiyanoma va boshqalar kiradi.

Barcha sohalarda hujjatlar bir necha jihatlarga ko'ra tasnif qilinadi. Misol uchun, mazmuniga ko'ra: sodda va murakkab hujjatlar.

Sodda hujjatlar – bir masalani opz ichiga oladigan hujjatlardir. Bularga ariza, tilxat, e'lon, kafolat xati va boshqalar kiradi.

Murakkab hujjatlar – bir necha masalani o'z ichiga olgan hujjatlardir. Bularga shartnomalar, rejalashtirilgan hisobot hujjatlari va boshqalar kiradi.

Mazmun bayonining shakli jihatidan xususiy, na'munaviy, qolipli hujjatlar farqlanadi.

Xususiy hujjatlar – tashkilotlarda matnning o'ziga xosligi, betakrorligi , mazmun bayoni erkin bo'ladigan hujjatlardir. Bularga xizmat, so'rov , iltimos, javob, kafolat, axborot xatlari va boshqalar kiradi.

Qolipli hujjatlar – odadta, oldindan tayyorlangan bosma ish qog'ozlariga yoziladigan hujjatlardir. Bularga ish haqi yoki yashash joyi haqidagi ma'lumotnomalar, mehnatga layoqatsizlik varaqalari, ayrim dalolatnomalr, xizmat safari guvohnomalari va boshqalar kiradi.

Namunaviy hujjatlar – boshqaruvning muayyan bir vaziyatlari bilan bog'liq, bir – biriga o'xhash va ko'p takrorlanadigan masalalar yuzasidan tuzilgan matnlarni o'z ichiga oladigan hujjatlardir. Bularga tavsiyanoma, ariza, e'lon, taklifnomা va boshqalar kiradi.

Ma'lumotlar manbayiga qarab biz hujjatlarni birlamchi va ikkilamchi hujjatlarga bo'lamiz.

Birlamchi hujjatlar muayyan vaziyatlarni, shaxslar va organlar va boshqalarni tavsiflaydi.

Ikkilamchi hujjatlar yanada umumlashtirilgan , tahliliy harakterga ega bo'lib, chuqurroq analitik ijtimoiy aloqalarni aks ettiradi.

Axborotni uzatish uslubiga qarab ular orasidagi farq ajratiladi.

Yozma hujjatlar– barcha turdag'i bosma va qo'lda yozilgan mahsulotlar. Masalan, kitoblar , xatlar matbuot, statistik va boshqa haqiqiy nashrlar va hokazo;

Fonetik , ya'ni eshitish qobiliyati uchun mo'ljallangan(radio, gramofon, lenta, lazer va kompyuter audio yozuvlari)

Ikonografik hujjatlar – ya'ni vizual ravishda qabul qilinadi. (vvideo, foyo, film hujjatlari, rasmlar , bosma nashrlar va boshqalar)

2. Hujjatlarni o'rghanish ham sotsiologik ma'lumotlar yig'ishda o'ziga xos o'ringa ega. Hujjatlarni o'rghanish metodlarini 2ta katta guruhga ajratish mumkin: an'anaviy va formallashtirilgan. O'z navbatida, an'anaviy metodlar ham 2 guruhga bo'linadi:

A) Umumiyl - (tushunish, intuitsiya, anglab yetish)

B) maxsus (mabalarga asoslanish , psixologik, yuridik metodlar)

Formallashtirilgan metodlarga kontent -analizni kiritish mumkin.

Hujjatlarni o'rghanish usullarini quyidagilarga bo'lamiz:

1. Statistik

2. Avtobiografik

3. Kontent -analiz.

Bu usullarning birinchisi va ikkinchisi hujjatlarni an'anaviy va mazmuniy tahlil qilsa , ya'ni muayyan tadqiqot obyektini tashqi koprinishi, nima haqidaligi, mualifi, ishonchlilik me'yori, foydalilik darajasi , kimga mo'ljallanganligi, qaysi tildaligi va hokazolar atroficha oprganilib xulosa qilinadi. Kontent tahlilda esa tadqiq etilayotgan obyektni oprganish ko'lami jiddiy teranlashadi va tadqiqotchi o'zi o'rGANAYOTGAN manbaning mohiyat asoslariga nazar sola boshlaydi.

Hujjatlarni tahlil qilish jarayonida quyidagilarga alohida e'tibor qratish lozim: Tashkilot , muassasa va mansabdor shaxslar tomonidan beriladigan hujjatlar umumiyl qabul qilingan muayyan guvohlik mazmunini ifodalovchi rasmiy rekvizitlarga ega bo'ladi.

a) Hujjatlarda muhr, shtamp, bosmaxona blanki belgilari bo'lib , ular muayyan muassasa , tashkilotga tegishli ekanligidan dalolat berib turadi.

b) Hujjat ma'lum mansabdor shaxs tomonidan imzolangan bo'lib, uning ismi sharifi va unvoni aks etadi.

c) Hujjatda u tuzilgan joy, vaqt, qabul etish va muayyan adresga jo'natish belgilari qayd etilgan bo'ladi.

Albatta , sotsiologiya fani uchun hujjatda aks ettirilgan mazmun birinchi darajali ahamiyatga ega, ammo mazkur hujjatning nechog'lik haqqoniyligi va realligi uning tuzilish shakliga ham bog'liqdir.

Hujjatlarni tahlil qilish – dastlabki ma'lumotlar to'plashning keng tarqalgan va samarali usullaridan biri. Jamiyatning ma'naviy moddiy hayotini aks ettirgan hujjatlar nafaqat ijtimoiy voqelikning voqeasi, haqiqat tomonini aks ettiradi, balki barcha ifoda vositalarining va eng avvalo, til tuzilishining rivojlanishini qayd etadi. Ularda alohida shaxslar, jamoalar, aholi guruhlari va umuman, jamiyat faoliyati jarayoni va natijalari haqida ma'lumotlar mavjud. Shu sababli hujjatli ma'lumotlar sotsiologlar uchun katta qiziqish uyg'otadi. Ular o'z tadqiqotlari davomida ko'plab xilma – xil hujjatlar :

1. Davlat va hukumat hujjatlari;
2. Statistik to'plamlar va ro'yxatga olish materiallari;
3. Idoraviy hujjatlar;
4. Badiiy va ilmiy nashrlarning asarlari
5. Matbuot;
6. Siyosiy rahbarlarning chiqishlari;
7. Barcha qatlam vakillarining xatlari ni o'rGANADILAR.

Sotsiolog dastlabki ma'lumotlar to'plash uchun qanday usullardan foydalanishidan qat'iy nazar, mutlaq ko'p tadqiqotlarning boshida hujjatlar bilan tanishadi. Ushbu bosqichda hujjatlar , qoida tariqasida , mustaqil sotsiologik tadqiqotlar obyekti emas, faqat ma'lumotlarning yordamchi manbayi hisoblanadi. Ushbu funksiyani 4ta hujjatlar guruhi bajarishi mumkin:

1. Tadqiqot to'g'risidagi ma'lumotlarning to'plamlari;
2. Protokollar
3. Tarnskriptlar
4. Shaxsiy hujjatlar.

Hujjatlar tahlili ilmiy izlanish usuli sifatida tadqiqotning 2ta turiga asoslanadi: miqdoriy semantik tahlil va amaliy sotsiologiyada qo'llaniladigan asosiy usul – hujjatlar tarkibini tahlil qilish. Qolaversa, hujjatlar tahlilini ichki va tashqi tahlillarga bo'lishiiz mumkin. Tashqi tahlil – hujjatlarning paydo bo'lishi sharoitlarini , uning tarixiy va ijtimoiy kontestini o'rGANISH. Ichki tahlil– bu hujjat tarkibini , manbaning matni bilan tasdiqlanadigan hamma narsani va hujjatda bayon etilgan obyektiv jarayonlar va hodisalarini o'rGANISH.

Hujjatlarni tahlil qilishning har xil turlari mavjud. Ko'pincha 2 asosiy turdan foydalilanadi:

Sifatli (an'anaviy) va rasmiylashtirilgan(tarkibiy tahlil) . Hujjatlarni o'rGANISHDA ushbu 2ta yonashuv ko'p jihatdan farq qiladi, ammo ular bir- birini to'ldirishi mumkin.

Sifatli tahlil ko'pincha rasmiylashtirilga tahli uchun zaruriy shart bo'lib xizmat qiladi. Sifatli (ana'anaviy) tahlil deganda, hujjat tarkibidagi ma'lumotlarni tadqiqotchi tomonidan

har bir alohida holatda qabul qilingan muayyan nuqtayi nazardan izohlashga qaratilgan turli xil aqliy operatsiyalar tushuniladi. An'anaviy tahlil hujjatlarni mazmunining chuqur , yashirin tomonlarini yoritishga imkon beradi . Hujjatlarni tahlil qilishning ushbu usuli kamchiliklari — subyektivlikdir.

Sifatli tahlil mustaqil usul sifatida noyob hujjatlarni o'rganishda alohida ahamiyat kasab etadi. Ularning soni har doim kam bo'ladi, shuning uchun ma'lumotlarni miqdoriy qayta ishlashga ehtiyoj qolmaydi.

Rasmiylashtirilgan tahlil qilish – bu hujjatlarni miqdoriy usuli , ya'ni tarkibini tahlil qilish. Ushbu usulning mohiyati miqdoriy , oson hisoblanadigan belgilar, xususiyatlar, hujjatlarning xususiyatlarini aniqlashdir. Rasmiy tahlilning kamchiliklari shundaki, rasmiy koprsatkichlar bilan hujjatning barcha parametrlarini o'lhash mumkin emas. Tarkibni tahlil qilish – bu o'rganish maqsad va vazifalariga muvofiq ravishda matn xususiyatlarini obyektli va tizimli ravishda aniqlash orqali xulosa chiqarish usuli.

Hujjatlarni tahlil qilish metodi tadqiqot maqsadlariga mos keladigan ma'lumotlarni olishga qaratilgan hujjatlarni tizimli o'rganishdir.

XULOSA

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlab o'tish joizki, sotsiologiyadagi hujjatli manbalarni tahlil qilish – bu ba'zi tadqiqot muammolarini hal qilish uchun ijtimoiy jarayonlar va hodisalarni o'rganishda sotsiologik ma'lumotlarni hujjatli manbalardan olish uchun qo'llaniladigan uslubiy- texnika va protseduralar to'plamidir.

Hujjatlami tahlil etish - har qanday hujjatda mavjud bo'lgan ma'lumot

axborot manbasi sifatida xizmat qiladigan sotsiologik tadqiqot metodidir. Axborot manbalari quyidagilardan iboratdir: bayonnomalar, ma'ruzalar, qarorlar, rezolyutsiyalar, gazeta va jumaldagi maqolalar, xatlar, badiiy asarlar,

illyustratsiyalar va hokazo. Bu metod ro'y berib o'tib ketgan hodisalar, ishtirokchilami so'rov qilish imkoniyati bo'limgan bevosita kuzatuvalar haqida ma'lumotlar olishga imkon beradi. Ko'p yillar mobaynida bir hodisaning matnlar bo'yicha o'iganish uning o'zgarib va rivojlanib borish jarayoni xususiyatlarini aniqlash imkonini beradi.

Shunday qilib , hujjatlarni tahlil qilish hujjatlarda aks etgan ijtimoiy hodisa va jarayonlar to'g'risida , shuningdek, ushbu hodisalar va jarayonlarga jamiyatdagi munosabatlarning o'zgarishi topg'risida muhim mazmunli xulosalar chiqarishga imkon beradi. Ushbu tahlil metodini o'rganish vaqtidan ancha uzoq bo'lgan voqealarga aholining munosabatlarini o'rganish uchun muvaffaqiyatli qo'llashimiz mumkin ekan.

Sotsiologik tadqiqotda hujjatlarni tahlil qilish metodidan foydalanishning afzallik tomonlari – axborotlarni chiqarishga hojat yo'q, chunki bu usul allaqachon mavjud bo'lgan ma'lumotlardan foydalanadi.

Qabul qilingan ma'lumotlarning yuqori darajadagi ishonchliligi bo'ladi, sababki, hujjatlar tekshirish uchun eng qulay vositadir.

O'tmishdagi hujjatlarni tahlil qilish orqali boshqaruv tizimining tarixiy jihatdan o'rghanish qobiliyatiga ega bo'lishimiz ham mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Muqimjon Qirg'izboyev. SOTSILOGIYA(O'quv qo'llanma). «Navro'z» nashriyoti, Toshkent . 2009
2. Sotsiologiya. Ma'ruzalar kursi. Aliqoriev N.S, Bekmurodov M.B., OtaMirzayev O.B., va boshq. - Toshkent, 2001
- 3.Umumiy sotsiologiya. (Aliqoriyev N.S va Ubaydullayeva R.T tahriri ostida)- Toshkent: 1999
- 4.R. Umarova , B.Sarkisov. Sotsiologiya (o'quv qo'llanma) Toshkent. 2004
5. Sotsiologiya fanidan ma'ruza matni (V. Karimova tahriri ostida) Toshkent. 2000
6. Sotsiologik tadqiqot metodi va texnikasi . T: ToshDU, 1999.
7. Sotsiologiyadan ma'ruza matni.
Xadjiev Umrbek Shonazarovich , Urganch :2015.
- 8.X.B. Saitxodjayev. Sotsiologiya Darslik Toshkent: 2017.
- 9.lawywer-greet.ru.
10. Wikipedia.org
11. Studopedia.org
12. Fayllar.org

Saydalievich, U. S., Abdurashid ogli, A. S., & Qurbonboy ogli, X. J. (2021). UNDERSTANDING AND CONCEPTING BALLS IN THE SPIRIT OF MILITARY PATRIOTISM. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 9(12), 924-929.

Ismoilovich, M. R., Saydaliyevich, U. S., & Murodjon og, B. K. (2022, May). РОЛЬ ВОЕННОЙ ПЕДАГОГИКИ И ПСИХОЛОГИИ В ВООРУЖЕННЫХ СИЛАХ. In INTERNATIONAL SCIENTIFIC RESEARCH CONFERENCE (Vol. 1, No. 4, pp. 447-452).

Akhmedov, A. N., & Abdurakhimov, S. A. (2018). The study of the grinding process of rushanka from the nuclei of cotton seeds of different varieties. CHEMISTRY AND CHEMICAL ENGINEERING, 2018(3), 17.

Saydaliyevich, U. S. (2022). Struggle of the peoples of Central Asia against the Achaemenids Tomaris, Shirak. Periodica Journal of Modern Philosophy, Social Sciences and Humanities, 6, 64-67.

Ogli, Y. A. B., Ogli, A. J. I., & Ogli, U. S. S. (2021). HOLY DEFENSE OF THE COUNTRY. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 9(10), 544-546.

Tojimatovich, A. A., & Saydaliyevich, U. S. (2021). Formation Of Science as A Value and Classification of Values. Texas Journal of Multidisciplinary Studies, 3, 172-178.

Arabboy, Y., Sardorbek, S., & saidakbar Saydaliyevich, U. (2022). PEDAGOGICAL OPPORTUNITIES FOR DEVELOPING CREATIVITY IN FUTURE TEACHERS ON THE BASIS OF ACCOLOGICAL APPROACH. FORMATION OF PSYCHOLOGY AND PEDAGOGY AS INTERDISCIPLINARY SCIENCES, 1(9), 280-283.

Khalilovich, M. S., Saydaliyevich, U. S., & Ogli, A. O. M. (2022). EDUCATION OF YOUNG PEOPLE IN THE SPIRIT OF MILITARY AND PATRIOTISM. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 10(2), 572-574.

Kuyoshbek, Y., Nurmukhammad, K., Arabboy, Y., Sardorbek, S., & Saydaliyevich, U. S. (2022, May). THE CONQUEST OF CENTRAL ASIA BY THE ARABS. In INTERNATIONAL SCIENTIFIC RESEARCH CONFERENCE (Vol. 1, No. 4, pp. 130-134).